

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIGI: MOHIYATI, UNING DAVLAT MILLIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI VA O'RNI

Umrzakov Elyor Ilhomovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining O'zbekiston Respublikasining harbiy xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari va harbiy havfsizlik tushunchasi to'g'risida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xavfsizlik, harbiy xavfsizlik, mudofaa xavfsizligi, milliy xavfsizlik, mamlakat mudofaasi.*

Bugungi kundagi globalashuv jarayonining keskin qonuniyatlari dunyo mamlakatlari orasida iqtisodiy tengsizlikni yanada o'zgartirib, ba'zi holatlarda kolonializmning yangi shakli sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ayrim buyuk davlatlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy, diplomatik, axborot kabi sohalardan asosiy vosita sifatida foydalanmoqda. Biroq, dunyoning qator davlatlari tomonidan olib borilayotgan milliy xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan yondashuvlar tahlili – QK davlatning eskirib qolgan atributiga aylandi degan fikrlarni inkor etib, o'zlarining hayotiy muhim manfaatlariga o'z harbiy kuchlari orqali erishmoqdalar.

Shu tariqa davlatlar harbiy doktrinalarining maqsad va vazifalari harbiy kuchlarni saqlab turish, kuchaytirish va kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etish orqali harbiy xavf va tahdidlarni oldini olishga qaratilmoqda. Bu jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganish esa avvalambor "xavfsizlik" tushunchasining tadqiq qilishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda [1].

Harbiy xavfsizlikka berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, barcha mualliflar harbiy xavfsizlik davlat, jamiyat va shaxsning harbiy xarakterga ega bo'lgan destruktiv omillardan himoyalanganlik holatidir degan tamoyilga tayangan. Biroq, bunda ularning ayrimlari bu omillarni - harbiy xavf, boshqalari - harbiy tahdid deya keltirishgan. Bizningcha, harbiy xavf va harbiy tahdid o'zining tabiatidagi qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

"Harbiy xavfsizlik" tushunchasi va uning mohiyatini ko'rib chiqib quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Harbiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati me'yoriy hujjatlarda to'liq o'z aksini topishi maqsadga muvofiqdir.

2. Harbiy xavfsizlik – milliy xavfsizlik tizimining tashkiliy bo'lagi bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining harbiy xavflardan yetarlicha himoyalanganlik holatini anglatadi.

3. Harbiy xavfsizlik davlat, jamiyat va shaxsni ichki va tashqi harbiy tahdidlarning butun bir majmuasidan himoyalash bo'yicha barcha choralar majmuasini ko'zda tutadi.

4. "Harbiy xavfsizlik" atamasining "mudofaa xavfsizligi" atamasi bilan almashtirilishi o'rinsizdir, vaholanki, harbiy xavfsizlikning ta'minlanishi nafaqat tashqi harbiy agressiyani bartaraf etish, balki ichki xarakterga ega bo'lgan harbiy

tahdidlar (masalan, terrorizm, ekstremizm, konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy ravishda o'zgartirish)ni o'z ichiga oladi.

Shu tariqa, harbiy xavfsizlik bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini turli ko'rinishdagi ham tashqi, ham ichki harbiy xavf va tahdidlardan himoyalanganlik darajasini anglatuvchi milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'riflanadi.

Xavfsizlik va ushbu masalaga oid yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni ta'kidlash lozim [2]:

- xavfsizlik ilmiy kategoriya hisoblanib, unga oid turli talqinlar mavjud, ammo ularni birlashtiruvchi yagona tamoyil, bu turli tahdid, xavf-xatarlardan himoyalanganlik holati hisoblanadi;

- milliy xavfsizlik, bu shaxs, jamiyat va davlatning muhim hisoblangan manfaat va ehtiyojlarini himoyalashni o'z ichiga olib, uning tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, harbiy, ekologik, axborot-psixologik, resurs xavfsizliklarini ko'rsatib o'tish mumkin;

- mamlakatda xavfsizlikning ta'minlanganligi, institutsional tarzda amalga oshirilib, bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik Kengashi muhim o'rin tutadi;

- O'zbekiston Milliy xavfsizlik tizimi turli fanlar doirasida yetarlicha o'rganilib, mazkur tizimni takomillashtirish usullari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Harbiy xavfsizlikning muhim qismi harbiy xavfsizlikni ta'minlash tizimi bo'lib, mazkur tushuncha ostida davlatning harbiy xavfsizlik sohasida qabul qilingan strategiyasini amaldagi qonunchilik asnosida aniq muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va fuqarolar faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan mexanizmni tushunish lozimdir. Mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash muammosini yechishga doir bir nechta ta'limotlar mavjud bo'lib, ularning asosida turli yondashuvlar yaratilgandir [3].

Birinchi yondashuv, davlat harbiy siyosatida xalqaro huquq tamoyillarining ustuvorligi konsepsiyasiga asoslanib, mazkur konsepsiyaning mohiyati xavfsizlikni ta'minlash kafolati sifatidagi qurolli kuch va xalqaro huquq me'yorlarining so'zsiz bajarilishi, keng doiradagi hamkorlik hamda o'zaro ishonch bilan almashtirilishi lozimligida namoyon bo'ladi.

Harbiy xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan **ikkinchi yondashuv**, kuchga asoslangandir. Bunda, tinchlik sharoitida milliy manfaatlariga nisbatan mavjud bo'lgan yoki ehtimolli xavflarga adekvat bo'lgan harbiy salohiyatni tashkil etish va saqlab turishga intilishda ifodalanadi. Harbiy xavfsizlikni ta'minlashga doir birinchi yondashuvning tarafdori bo'lgan holda, O'zbekiston shu bilan birga, hozirgi zamonda dunyodagi real vaziyatni-kuch bosimi usuli, harbiy xavf va to'g'ridan-to'g'ri kuch ishlatishning davlatlar tomonidan o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish vositalari tarkibidan yaqin o'rtada chiqarib tashlamasliklarini inobatga olishi lozimdir. Mazkur sharoit harbiy xavfsizlikni ta'minlashga doir mamlakatimiz uchun maqbul bo'lgan yagona yondashuv, ya'ni uchinchi yondashuvni yuzaga keltirmoqda. **Uchinchi yondashuv**ning mohiyati shundaki, urushlarni bartaraf etishning huquqiy, diplomatik va boshqa noharbiy vositalari ustuvorligini e'tirof

etgan holda, bir vaqtning o'zida mamlakatning yetarli darajadagi mudofaa qobiliyatini ta'minlash salohiyatiga ega bo'lgan harbiy kuch tuzilmalarini saqlab turishda namoyon bo'ladi. Bunday salohiyat ostida tinchlik davrida juda kam sarf-xarajatlar evaziga ehtimoliy agressorni urush boshlashdan saqlab turuvchi, harbiy tajovuz sodir etilgan holatda esa strategik harakatlarni amalga oshirish va agressiyani bartaraf etish imkonini beruvchi harbiy kuchga egalik tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, mamlakatimiz qurolli kuchlari va boshqa mudofaa tizimiga taalluqli bo'lgan tuzilmalar bir tomondan mamlakatimiz mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim manfaatlarni ishonchli himoyasini ta'minlaydi.

Ushbu **uchinchi yondashuv**ni amalga oshirish jarayonida davlat yetakchilik qiladi va u quyidagilardan kelib chiqadi:

- bir-biri bilan organik bog'liqlikda bo'lgan hamda bir-birini to'ldirib turuvchi xalqaro huquqiy me'yor va tamoyillar ustuvorligi ahamiyatining barqarorligi;

- mamlakatimiz milliy manfaatlari va xavfsizligiga zarar keltirmaydigan hamda Birlashgan millatlar tashkiloti Nizomiga zid bo'lmagan siyosatni amalga oshirayotgan barcha davlatlarni hamkorlar sifatida qabul qiladi;

- harbiy sohada o'zaro ishonch choralarini, jumladan harbiy xarakterdagi axborot almashinuvi, mudofaa doktrinasini, harbiy qurilish, harbiy faoliyat reja va tadbirlarining muvofiqlashtirilishini kengaytiradi.

Nazariy jihatdan harbiy xavfsizlikni ta'minlashning maqsadi bu harbiy xavfni oldini olish, kengayishiga yo'l qo'ymaslik (lokalizatsiyalash) va bartaraf etish (neytrallashtirish)dan iborat. "Harbiy xavfsizlikni ta'minlashda, shartli raqibni qo'rqitish strategiyasi sifatida QK bosish vazifasi ajratiladiki, uning maqsadi urush boshlanib ketishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat" [4].

Harbiy xavfsizlikni ta'minlashning strategik maqsadi esa, har qanday davlat yoki davlatlar ittifoqi tomonidan ehtimoliy raqib mamlakatning xalqaro munosabatlar subekti sifatidagi roli va ahamiyatini zaiflashtirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zgartirish, milliy manfaatlariga ziyon yetkazish maqsadidagi turli ko'rinishdagi ta'sir ko'rsatish mumkinligini bartaraf etish imkonini beruvchi siyosiy, xalqaro va harbiy-strategik holatini shakllantirish va saqlab turishdan iboratdir. Harbiy xavfsizlikka – davlatning manfaatlariga bo'lgan tahdidlarga javob tariqasida yagona davlat siyosatini qo'llash, iqtisodiy, siyosiy, harbiy, psixologik, ma'naviy, madaniy, ilmiy-texnik, tashkiliy va boshqa xarakterdagi choralar tizimi orqali erishiladi.

Bundan kelib chiqib, jamiyat va davlatning harbiy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyati ma'lum bir ustuvor tamoyillarga asoslanmogi lozim bo'ladi. Xususan, bularga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- xavfsizlikning barcha shakllari birligi, o'zaro aloqadorligi va muvozanatlashganligi, vaziyatning o'zgarishiga qarab ular ustuvorligining o'zgarishi;

- harbiy xavfsizlikni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy va axborot vositalarining ustuvorligi;

- mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash tizimi va uning qismlari faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga buysunishi;

- vaqt, resurslar, kuch va vositalar nuqtayi nazaridan real vazifalarning ilgari surilishi;

- harbiy xavfsizlikni ta'minlash kuch va vositalari boshqaruvining tuzilishi, davlat hokimiyati organlari, uning subektlari va mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarining taqsimlanishiga mos ravishda amalga oshirilishi [5].

Harbiy xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimida muhim o'rin egallaydi va uni tizimli kategoriya sifatida faqatgina bir soha sifatida, bir darajada ko'rishning imkoni yo'q. U jamiyatning deyarli barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bularni inobatga olib, ta'kidlash mumkinki:

- harbiy xavfsizlik bu yaxlit rivojlanayotgan tizim bo'lib, u o'z tuzilishiga, elementlararo va boshqa tizimlar (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik va h.k.) bilan o'zaro munosabatlarga ega;

- harbiy xavfsizlik tizimi bu milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, o'z navbatida davlatning harbiy-siyosiy sharoitiga, ichki va tashqi xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi hamda uning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Mamlakatning xavfsizlik tizimi ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy, texnologik, ilmiy-texnik, axborot-psixologik, madaniy, axloqiy, maishiy kabi omillarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular, birinchi galda, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni yechish va maqsad sari yo'naltirishga qaratilgandir. Mazkur tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon bo'lib, unda murakkablik, keng qamrovlilik va ziddiyat kabi qonuniyatlar o'z ifodasini topadi.

Harbiy xavfsizlik o'z siyosatiga ega bo'lib, uning 3 turi, ya'ni:

- xavfsizlikning harbiy siyosati (military security policy);

- xavfsizlikning ichki siyosati (internal security policy);

- xavfsizlikning vaziyatli siyosati (situational security policy) mavjuddir.

Ularni tadbiq etishning ikki darajasini tezkor (operational level) va institutsional (institutional level) darajalarda amal qilishini ko'rsatib o'tish mumkin. "Xavfsizlik tizimi tashkiliy jihatdan real ekanligi asnosida tabiiy integratsiyaga tayanib, fuqarolik jamiyati va davlatning xavfsizligi bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan usul va vositalar asosida muammolarni o'zaro manfaatdorlikda yechishga qaratilgandir. Bunda qurolli kuchlarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir". Fuqarolik jamiyatida qurolli kuchlar o'z mavqeyini yo'qotmaydi, uning vazifalari ko'lami takomillashtirilib professionallik darajasi oshadi. Bunga sabab, fuqarolarning qurolli kuchlar ustidan nazorati kuchayadi, bu demokratiya bilan identifikatsiya emas. Negaki, demokratik jamiyatda qurolli kuchlar katta siyosiy hokimiyatga ega bo'ladi. Fuqarolik nazoratini subektiv va obektiv bo'lishini ko'rsatib, "subektiv nazoratda armiya turli siyosiy kuchlar manfaatining nazoratida bo'ladi. Obektiv nazoratda esa, armiya betaraf va siyosatdan holi bo'lib, davlatga bo'ysunadi, fuqarolik hokimiyati tomonidan uni avtonomligi e'tirof etiladi" [6].

Harbiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin:

- mamlakat mudofaasini ta'minlash uchun qulay bo'lgan tashqi siyosiy shart-sharoitlarni yaratish;

- harbiy xavfsizlik sohasidagi ustuvor milliy manfaatlarni, uni ta'minlashning siyosiy-diplomatik hamda boshqa noharbiy usul va vositalari majmuasini aniqlashtirish;

- mamlakat mudofaasi, qurolli kuchlar hamda boshqa kuch tuzilmalari ustidan harbiy-siyosiy va strategik boshqaruvni amalga oshirish;

- mudofaa doirasidagi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, ularni takomillashtirib borish, ishonchli mudofaani amalga oshirish uchun zaruriy bo'lgan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy tayanch yaratish;

- mamlakat aholisida mudofaa tafakkurini shakllantirish;

- qurolli kuchlar hamda mudofaaga jalb etiluvchi boshqa kuch tuzilmalarini yuqori darajadagi jangovar holatda, mamlakatni qurolli himoya qilishga jangovar va safarbarlikda saqlab turish;

- harbiy fan va harbiy san'atni rivojlantirish hamda mustahkamlash;

- mudofaa sanoati majmuasini rivojlantirish.

Ehtimolli xavfni tahlil etish, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari, usul va vositalarini ishlab chiqish, shuningdek, yuzaga keladigan xavflarni bevosita bartaraf etishni amalga oshirish maqsadida davlatda uning manfaatlarini qurolli himoyasini amalga oshiruvchi tizim mavjud bo'ladi [7].

Mazkur tizimga esa quyidagi ehtimolli vazifalar yuklatiladi:

- harbiy xavfsizlikning hayotiy muhim bo'lgan obektlariga nisbatan tashqi va ichki tahdidlarni aniqlash va prognozlash:

- tahdidlarni oldini olish, bartaraf etishga doir tezkor va uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish;

- harbiy xavfsizlikni ta'minlash kuch va vositalarini tashkil etish va doimiy shaylikda saqlab turish;

- harbiy xavfsizlikni ta'minlash kuch va vositalarini kundalik shart-sharoitlar va favqulodda vaziyatlarda boshqarish;

- harbiy xavfsizlik obektlarining talab darajasida (mudofaani ta'minlash ehtiyojini qondirish) faoliyat yuritishini ta'minlash; xalqaro kelishuvlar asosida harbiy xavfsizlikni milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, uning tashqarisida ta'minlashga doir tadbirlarda ishtirok etish [8].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mudofaa sohasi bilan birga xavfsizlikning alohida sohalarini rivojlanishi milliy qonunchilikni yuksalishiga olib keladi. Ushbu xavfsizlikka oid hujjatlar asosiy tushuncha (milliy xavfsizlik, hayotiy muhim milliy manfaat, xavfsizlik tizimi va boshqalar) o'zining qat'iy ifodasini topadi.

Harbiy xavfsizlik muammolari doirasidagi barcha masalalarni yechish yagona organ, ya'ni tizim tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bu o'z navbatida davlat xavfsizligi doirasida vujudga keladigan barcha muammolarni ularning yuzaga

kelishidan boshlab, keltirib chiqargan sabablarini to'liq bartaraf etishgacha bo'lgan muammolarni hal etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan O'RQ–458-sonli “Mudofaa doktrinasini to'g'risida”gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi. - Toshkent: 1997.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston. 2000. T. 8. –B. 245-351.
4. BMT Nizomi 1945-yilning 26-iyunida San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Konfederatsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1942-yilning 24-oktabridan kuchga kirgan Xalqaro Sud Statuti Nizomining tarkibiy qismi hisoblanadi. –T., 2002.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining Konsepsiyasi to'g'risida”gi Qonuni.
6. Samarov R.S., Otamatov M.A. Milliy xavfsizlik asoslari. Darslik. O'R QK Akademiyasi nashri, 2021. - 273 b.
7. Jo'raev S. va boshq. Xalqaro xavfsizlik. – Toshkent: Akademiya, 2007.
8. Internet manbalari.